

IJORCES

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF CONFERENCE SERIES ON EDUCATION
AND SOCIAL SCIENCES.**

**PUBLISHER: ÇORUM: O CERINT -INTERNATIONAL
ORGANIZATION CENTER OF ACADEMIC RESEARCH**

IJORCES

**International journal of conference series on education
and social sciences. (Online)**

July 2023

Science Editor: **Cetin Avcı**
(*Kadir Has University*)

Copyright © 2023

By Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

All rights reserved.

Available at ijorces.org

Published:

Çorum: Ocerint -International Organization Center of Academic Research

ISSN 2717-7076

Bursa

Bursa, Turkey

Editorial Board Members

Prof. **Hakan Mete Dogan**, Tokat Gaziosmanpasha University, Turkey

Prof. **Afsun Sujayev**, Institute of Additive Chemistry of the ANAS, Azerbaijan

Prof. **Nadir Mammadli**, Azerbaijan Architecture and Construction University, Azerbaijan

Prof. **Munever Sokmen**, Konya Food and Agriculture University, Turkey

ELSEVIER



SSRN
Electronic Journals

Universal
Impact Factor



HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY VA QO'QON TEATRI

Raximova Charos Xamidulla qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
3 kurs tayanch doktoranti (PhD)
charosraximova961@gmail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qonda ilk teatrchilik harakatlari va havaskorlik truppasi bilan ilk sahnalashtirilgan asarlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: professional teatr, sayyor truppa, jadid, havaskor jamoa, spektakl, aktyor, grim.

Qo'qon shahar musiqali drama teatri respublikamizning Farg'ona vodiysidagi eng to'ng'ich teatr, san'at ayvonlaridan biridir. Yuqorida ta'kidlangandek, unga 1915-yilda o'zbek milliy teatrining asoschilaridan biri, shoir, dramaturg va davlat arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy Hakimzoda Niyoziy va O'zbekiston xalq artisti Jo'rayevlar asos solgan. Mazkur san'at dargohi 1918-yilda yarim professional, 1925-yilda esa professional teatr sifatida tan olingan, teatrga 1927-yildan esa, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan "Davlat teatri" maqomi berilgan.

Tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan qaraganda, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ma'rifatparvar ziyolilarimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan o'zbek teatri truppalari Turkiston zaminida professional teatr talablariga javob beradigan dastlabki milliy sahna asarlarini yaratdilar. Ayniqsa, xalqimizning ma'naviy takomilida teatr san'atining nechog'li katta ahamiyatga ega ekanini jadid ma'rifatparvarlari orasida eng birinchilardan bo'lib sezgan va bu sohada matonat bilan faoliyat ko'rsatgan ijodkorlardan biri - Hamza Hakimzoda Niyoziy Hakimzoda Niyoziy 1915-yilda Qo'qonda havaskorlik truppasi tashkil etib, uning birinchi pardasini o'zining "Zaharli hayot" pyesasi bilan ochdi [1.b.21].

Aytish mumkinki, XX asr boshida, mustamlakachilik zulmiga qaramay, xalqimiz yangi urflarga - milliy uyg'onish va erkinlik sari intilib yashagan bir davrda buyuk ajdodlarimiz - jadidlar tomonidan amalga oshirilgan bu ulkan ish, bu harakatni o'ziga xos ma'naviy jasorat namunasi deb atash mumkin.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning eng yaqin safdoshlaridan biri Qo'qonlik marhum Shermatjon Karvonov edi. "Adabiy meros" tahririyati a'zosi, filologiya fanlari nomzodi Yoqubjon Jo'rayev Shermatjon Karvonov bilan 1976- 77-yillarda bir necha bor suhbatlashib, uning Hamza Hakimzoda Niyoziy haqidagi xotiralarini yozib olgan edi. Shermatjon Karvonov shunday xotirlaydi: "1915-yilda Qo'qonda "Appalo" degan teatr bor edi. Shu teatrdan Samarqanddan kelishib, "Padarkush"ni, Toshkentdan kelgan teatr esa "Baxtsiz kuyov " va "To'y " spektaklini qo'yishdi. Artistlar yetarli bo'lmaganidan Mirshohid biz, yoshlarni va maktab o'quvchilarini o'sha teatr sahnalariga jalb etar edi. "Padarkush" va "Baxtsiz kuyov "da biz faol qatnashar edik".[2.b.32-33]

SH.Karvonov musiqali drama teatrini tashkil etish haqida yana shunday ma'lumotlarni keltiradi: "Dastlabki ishlar kadr tayyorlashdan boshlandi. Ro'yxatga eng avval meni yozishdi. Taxminan, ikki oy ichida 15 kishi tanlandi. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zi Farg'onaga borib, Mariya Kuznetsovani, Yo'lchi Egamberdievni oilasi bilan olib keldi. To'planganlar orasida o'zbek ayollari yo'q edi. Kimdir Zokirova degan ayolni tavsiya qildi, biroq undan hech ish chiqmadi. Havaskor tatar ayollari topildi. Ular Maryam Xannonova, Maryam Ruzvonova, Fazlihayot Xannonova, Muxtixay Kabkayevalardan

iborat edi".[3.b.41] Teatr o'z ishini qishki va yozgi binoga ega bo'lgan "Военное собрание" (hozirgi 4- internat)da boshladi.

Adabiyotshunos olim R. Ibrohimova ham "Hamza Hakimzoda Niyoziy Hakimzoda va teatr" nomli maqolasida aynan shunday fikrlarga hamohang ma'lumotlarni keltiradi. Bundan tashqari, Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodining dastlabki tadqiqotchilaridan biri - Sotti Husayn ham mazkur jarayon borasida shunday deb yozgan edi: "Jadid ziyolilari orasida teatru asarlarini yaratish va uni sahnaga qo'yish harakati ozarbayjon, tatar teatru truppalari va teatru asarlarining Turkistonga 1910- 1912-yillarda kirib kelishi bilan, ayniqsa, kuchaydi. O'zbek xalqini milliy zulmdan, nodonlikdan, qorong'ulikdan qutqarish uchun maydonga otilib chiqqan Hamza Hakimzoda Niyoziy teatrining xalq tarbiyasi uchun kuchli qurol ekanini tushundi va sahna asarlari yaratish ishiga kirishdi".[4.b.66]

Shuni aytish kerakki, teatr ozarbayjon dramaturglari, rejissyorlari rus va hatto Yevropa teatridan xabardorgina emas, balki ular ta'sirida o'z faoliyatlarini boshlagan edilar. Shuning uchun Hamza Hakimzoda Niyoziy singari dastlabki o'zbek dramaturglari va teatr arboblari tatar va ozarbayjon teatri orqali rus va yevropa xalqlarining sahna madaniyatlari bilan ham, birinchi navbatda, rus teatri va dramaturgiyasi bilan ham tanishdilar. Bu hol ularning, avvalo, Hamza Hakimzoda Niyoziyning professional teatr imkoniyatlaridan o'z xalqini milliy zulm va jaholatga qarshi kurashga uyg'otishda, maorif va madaniyat bilan yaqindan oshno etishda keng foydalanishlariga zarur shart-sharoitlar yaratdi. Bu davrdagi madaniy-tarixiy sharoit, hayotda yuz bergan ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar, ilg'or madaniyatli xalqlar bilan yaqinlashuv, xalqni ma'rifatli qilishga intilgan jadidlar harakatining avj olishi va boshqa omillar professional o'zbek teatrining vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xuddi mana shu davrda yashagan Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zbek teatri va dramaturgiyasining vujudga kelishida mislsiz rol o'ynadi. Hamza o'zbek dramaturgiyasi, o'zbek teatr san'atining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixiy zarurat ekanligini birinchilardan bo'lib tushundi. Uning o'zi dastlabki o'zbek truppalari tashkil etib, ular uchun sahna asarlarini yozdi, ularni o'zi sahnalashtirdi, o'zi bu asarlarda bosh rollarni ijro etdi, o'zi adabiy emikdoshlik qildi. 1915-yilda Qo'qonda Hamza tomonidan tashkil etilgan havaskorlik truppasi tez orada keng qanot yozib, dastlabki o'zbek professional teatr truppalariidan biriga aylandi. 1915-yilda ilk bor truppa ijrosida sahnalashtirilgan "Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari" spektakli teatrning dastlabki qaldirg'ochi bo'ldi .

Truppa a'zolari Hamza Hakimzoda Niyoziyning 1915-yilda yozib tugatgan, to'rt pardadan iborat "Zaharli hayot yoxud Ishq qurbonlari" nomli asarini sahnalashtirdilar. Repetitsiyalar Mahmud Tarashaning G'ishtko'prikdagi Qo'qonsoy bo'yida joylashgan boloxonasida o'tkazilar edi. Mahmudxon rolini Hamzaning o'zi, otasi Mirzahamdamboyni Abdulaziz, Eshon rolini Xolmuhammad Oxundiy o'ynadi. Maryamxon roli uchun truppaga xotin-qizlarni jalb qilib bo'lmadi. Shu boisdan, Maryamxon roli Mahmud Tarashaga berildi. Bu davrda teatrga Jo'rayev rahbarlik qilgan bo'lib, H. H. Niyoziy rejissyorlik vazifasini bajargan. Spektaklning birinchi tomoshasi yangi shahardagi "Общественное собрание" klubida bo'lib o'tdi. Bunda klub boshlig'i Galkin degan rus kishisi katta yordam berib, spektaklda ishlatiladigan dekoratsiya, butaforiya, rekvizit anjomlari va elektr chiroqlarini muhayyo qilib turdi. [5.b.428]

Spektaklda grim, soqol-mo'ylov kabilar yetishmaganiga qaramay, tanqidchi garchand bu asarga u qadar yuksak baho bermagan bo'lsa-da, u o'z davrida bir necha teatr truppalari tomonidan o'ynaldi va tomoshabinlar o'rtasida muvaffaqiyat qozondi. Mazkur "Zaharli hayot" spektakli qo'yilgan 1915-yilning oktyabri Qo'qon teatrining tashkil topgan kuni sifatida tarixga kirdi.

Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xalqimiz ma'naviy o'sishi yo'lida teatr san'atining ahamiyatini anglab yetgan va shu sohada fidoyilik bilan ijod qilgan Hamza Hakimzoda Niyoziy 1918-yili "Farg'ona sayyor truppasi"ni tashkil etilgani, milliy uyg'onish va erkinlik

sari intilib yashagan bir davrda o'ziga xos ma'naviy jasorat namunasi edi. Mazkur sayyor truppaning tashkiliy-ijodiy tarkibi Hamza Hakimzoda Niyoziy, Mahmud Tarasha, Xolmuhammad Oxundiy, Hasan Ermatov, Isoq Sodiqiy, A'zam Xo'jayev, Mirshohid Miroqilov, Azimxo'ja Toshkentxo'jayev, Abdullajon va boshqalardan iborat edi.

1919-yilda esa, "Farg'ona sayyor truppassi" ning ijodiy guruh a'zolari bilan bir qatorda, Jo'rayev, Lutfixonim Sarimsoqova, Murod Qo'ldoshev, Mariya Kuznetsova, Soli Ahmedov, Murodjon Ahmedov, Boborahim Mirzayev, Zudur Kobulov, Soyib Xo'jayev, Mirobid Musayev, Saboxon Karimova kabi yangi yosh san'atkorlardan iborat tarkib asosida Qo'qon davlat teatri tashkil etildi. Shu bilan birga, 20-yillar oxiriga kelib, bir umrga hayotini Qo'qon sahnasi bilan bog'lagan ijodkorlar - Zanjirali Mirzatov, Qurbon Nazarov, Murodjon Ahmedov, Rahima Mazohidovalar teatrning yangi ijodiy kuchlari sifatida o'z faoliyatlarini boshlagan. [6.b.547.]

Qo'qon teatri tashkiliy davrdan boshlab boshqa viloyat va respublika davlat teatrlari qatori zimmasidagi mas'uliyat va g'ururni his etib, ish tutdi. Uning sahnasida amalga oshirilgan spektakllar bunga guvohlik beradi.

Faoliyatini "Boy ila xizmatchi", "Tuhmatchilar jazosi", "Kim to'g'ri?", "Zaharli hayot", "Turkiston tabibi", "Uylanish", "Arshin mol olon" singari spektakllar bilan boshlangan jamoaga 1924-yili davlat teatri maqomi berilgan bo'lsa, 1929-yilda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning fojiali o'limdan so'ng uning nomi beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1.Umarov A., Mirzahamdov Z. Ho'qandi latif - san'at ayvoni. // Qo'qon teatri tarixi zarvaraqlari. Farg'ona, 2011. 21-bet.

2.Yoqubjon Jo'raev. Hamza haqida Sh.Karvonov xotirasi. // Adabiy meros, ilmiy asarlar to'plami. Institut tahrir va nashriyot bo'limi. - Toshkent, 1980, 1 (13), 31-32-bb.

3.O'sha joyda

4.Olimova K. Bir asr bitiklari. - T.: Istiqlol nuri, 2015, 66-bet

5.Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdanXX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). - T.: Fan, 1968. - 428 b.

6.Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi. (Monografiya) Toshkent: O'zDSI bosmaxonasi, 2009-yil, 547-bet